


2022- yil yanvar-sentabrda Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabrda Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 67 365,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 6,1 %ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 109,5 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 10,7 %ga yetdi.




2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da
	2021- yil	2022- yil	
I. YAHM, jami	58 019,4	67 365,2	106,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	55 862,0	64 657,3	106,0
mahsulotlarga sof soliqlar	2 157,4	2 707,9	108,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	55 862,0	64 657,3	106,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12 796,1	14 043,7	104,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	29 709,1	34 794,2	106,7
sanoat	26 922,9	31 156,2	106,6
qurilish	2 786,2	3 638,0	108,1
xizmatlar	13 356,8	15 819,4	106,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 242,1	4 098,9	112,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 588,0	3 025,6	110,8
boshqa xizmat tarmoqlari	7 526,7	8 694,9	102,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 22 770,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 %ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,0 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,0 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 21,7 %ni, sanoat tarmog'i 48,2 %ni, qurilish 5,6 %ni va xizmatlar sohasi 24,5 %ni tashkil qildi.

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,3	96,0
mahsulotlarga sof soliqlar	3,7	4,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	22,9	21,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	53,2	53,8
sanoat	48,2	48,2
qurilish	5,0	5,6
xizmatlar	23,9	24,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,8	6,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,6	4,7
boshqa xizmat tarmoqlari	13,5	13,5

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 21,7 %), sanoatda – 106,6 % (48,2 %), qurilishda – 108,1 % (5,6 %), xizmatlar sohasida – 106,3 %ni (24,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'ati savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,3 % (6,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,8 % (4,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,1 %dan (13,5 %) iborat bo'ldi.

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,9 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 3,0 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 4,7 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 1,1 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,5 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 2,4 f.p.) ijobiy (salbiy) hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,5 f.p.)ga ko'paydi

2022- yilning yanvar-sentabrida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan %da)



2022- yilning yanvar-sentabrda YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 109,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 120,8 % va xizmatlarda – 111,4 % qayd etildi.

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 47,0 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-sentabrda – 47,5 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil

47,5 %

2022- yil

47,0 %